



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

AMIRIY VA UNING IRFONIIY OLAMIGA BIR NAZAR

Sayfullayeva Ulbeka Quvondiq qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-kurs magistranti,
ulbekasayfullayeva@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Amir Umarxon va uning Qo‘qon adabiy muhitini tashkillashtirishdagi o‘rni haqida fikrlar olg‘a surilgan. Amiriy ijodining mavzu ko‘lami va uning „Devon“idagi ma‘rifiy-irfoniiy g‘azallarga to‘xtalib, ular tasavvufiy jihatdan sharhlangan. Shoirning salaflarining munosib davomchisi ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Amiriy, adabiy muhit, Devon, irfoniiy g'azallar, badiiy talqin, ustoz-shogird an'anasi.

A LOOK AT THE EMIR AND HIS MYSTICAL WORLD

Abstract.

This article discusses Amir Umarxon and his role in the organization of the Kokand literary environment. Focusing on the scope of the theme of Emir's work and the enlightenment-mystical ghazals in his „Devon“, they were interpreted from a mystical point of view. It is emphasized that the poet is a worthy successor of his predecessors.

Key words: Amir, literary environment, Devan, mystical poems, artistic interpretation, teacher-student tradition.

ВЗГЛЯД НА ЭМИРА И ЕГО МИСТИЧЕСКИЙ МИР

Аннотация.

В данной статье рассматривается Амир Умархан и его роль в организации кокандской литературной среды. Сосредоточившись на размахе творчества Амира и его просветительских стихах в Девоне, они интерпретируются с мистической точки зрения. Подчеркивается, что он является достойным продолжателем предшественников поэта.

Ключевые слова: Амир, литературная среда, Девон, мистические поэмы, художественная интерпретация, традиция учитель-ученик.

Amirsaid Muhammad Umarxon-Amiriy Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyandasi sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi. XVIII asr oxiri- XX asrning birinchi yarmida Qo‘qonda adabiy jarayonlarning jadallik bilan o‘shida asosiy o‘rinni egallaydi. Amiriyning ushbu adabiy jarayonlarning sardori sifatida yuqori rutbaga ko‘tarsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xo‘sh, bu adabiy jarayonni Amiriy qay tarzda tashkillashtira oldi? Avvalo, u ilmiy, madaniy va adabiy muhitni shakllantirdi. Turli hududlardan olim-u shoirlar, muallim- musavvirlar, xattotlarni shahar markaziga jalb eta oldi. Madrasa va ko‘plab kasb-hunarlarga mo‘ljallangan maktablar ochilishi va ularning faoliyatining yaxshilanishida rahnamolik qildi. Ko‘plab mumtoz asarlarni o‘rganish, ularni ko‘chirtirish, bundan tashqari, tarjima ishlarining rivoj topishida Amiriyning roli beqiyos. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Qo‘qon adabiy muhitida buyuk bir „portlash“ sodir bo‘ldi. Ammo bu „portlash“dan vayronalar emas, ilm-ma‘rifat gurkirab o‘sganining guvohi bo‘lib turibmiz.

Amiriyning biz shoh, ilm-ma‘rifat ahlining rahnamosi, qolaversa, otashqalb shoir sifatida ham ulug‘laymiz. U o‘zining ijod uslubi bilan ajralib turar edi. U yaratgan asarlar ishq-muhabbat, hayotni ardoqlash orqali o‘ynoqilik kasb etadi. Ularda shod-u hurramlik aks etib turadi. Shoir tomonidan yaratilgan g‘azal-u muxammas-u musaddas, musamman-u tuyuqlarida so‘zlarni shunday darajada qo‘llaydiki, uni

„so‘z guharshunosi“ [1.Хамиджон Ҳомидий, Кўҳна Шарк дарғалари,1999:313-bet] deb atash, albatta, joizdir. So‘zlarni bir bog‘ deb atasak, Amiriy u yerdan eng sara gullarni terib olib guldasta yasadi. Gullar shoir lirikasi, guldasta uning „Devon“i sanaladi. Bilamizki, shoir devonining bir qancha nusxalari mavjud. Maqolamiz davomida 1972-yil Mahbuba Qodirova kirish so‘zi bilan chop etilgan she‘riy devondan foydalanamiz.

Devon g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlardan tarkib topgan. Ushbu janrlardan g‘azal va muxammas Amiriy ijodida asosiy o‘rinni egallaydi. Amiriy g‘azallari mavzu jihatidan asosan ishqiy yo‘nalishda bitilgan. Shoir ijodida diniy mavzudagi ijod mahsullari ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Devonda ishq qay yo‘sinda kuylanadi? Amiriy insonning insonga, insonning Allohga, qolaversa, insonning tashqi muhitga ishqini betakror dalillar bilan keltirib, asoslab o‘tadi.

Shoir lirikasida irfoniy-ma‘rifiy mazmundagi g‘azallar ham borki, ularni bir qarashda asl ma‘nosida emas, balki moddiy dunyo bilan bog‘lab o‘rganib ketamiz.Ularda haqiqiy va majoziy ishq tasviri aralash holda tasvirlanganining guvohi bo‘lamiz. Zohiran nazar tashlanganda sevikli yor, mahbuba madhi namoyon bo‘ladi. Ammo botinan ilohiy yor- Haq taoloning sifatleri, uning visoliga erishish masalalari olg‘a suriladi. Masalan, „Qoshingga teguzmag‘il qalamni“, „Keling, ey do‘stlar, ahbob ila suhbat qiloli“, „Bu tun piri mug‘on bazmida men mehmon tong otquncha“, „ Xarobot ichra kirdim ishq naqdin roygon keltur“, „Qadam qo‘ydi buzulgon tiyra kulbam sori tun mohim“, „Visolingga ko‘ngul mushtoq edi, ey yor, xush kelding“, „Soqiyo kelki menga suhbat ahbob kerak“, „Meni shirin so‘z ila qildi Farhod unnobi“ va shu kabi bir qator g‘azallarini mutolaa qilar ekanmiz solikning Mutlaq ilohga muhabbati va uning vasliga erishish yo‘lida har qanday ranj chekishga tayyorligining guvohi bo‘lamiz. Keling Amiriy irfoniy olamiga uning bir g‘azali misolida kirishga harakat qilamiz.

Soqiyo kelki menga suhbat ahbob kerak,

Xastamen ranji xumor ichra mayinob kerak.

Tushdi devona ko‘ngul sunbuli purtobing aro,

Notavondur bu salosilda anga tob kerak.
 Bazmi vasling tilagon zorlarga sham kabi,
 Jigari so‘xta-yu diydai bexob kerak.
 Boqma oyina kabi yor yuzina gustoh,
 Vasl xilvatgahida oshiqa odob kerak.
 Oshiqing nola qilur, oh chekar, ashk to‘kar,
 Kimsakim, pesha qilur bir hunar, asbob kerak.
 Aylading bag‘rimni qon, mastlig‘ et, ayla nashot,
 Kimki bu sog‘ar erur ilgida shodob kerak.
 Men kim-u zuhdi vara’, ishq-u muhabbatdur ishim,
 Menga qoshing xami-yu zohida mehrob kerak.
 Garchi olamda Amiram senga qulmen billah,
 Ikki zulfung xamidin bo‘ynima qullob kerak.

[2.Amiriy,Devon,1972:127-bet]

Yuqorida keltirilgan g‘azal shoirning irfoniy-ma‘rifiy mazmundagi g‘azallari sirasiga kiradi. G‘azal boshdan–oyoq tasavvufiy ma‘no kasb etuvchi so‘zlardan tarkib topgan. Soqiy, xumor, mayinob,xilvatgoh, sog‘ar, zuhd, vara’, zohid, mehrob kabi so‘zlar shular jumlasidandir. G‘azalning dastlabki bayti shoirning soqiyga murojaati bilan boshlanadi. Unda soqiy, xumor, mayinob kabi tasavvufiy istilohlardan foydalanib, shoir o‘zining ichki kechinmalarini soqiyga oshkor etmoqda:

Soqiyo kelki menga suhbati ahbob kerak,
 Xastamen ranji xumor ichra mayinob kerak.

Mazkur baytda **soqiy**-may quyuvchi, **xumor**-mastlikdan keyingi bosh og‘rish holati, **mayinob**-maydan ham o‘tkirroq ichimlikdir. Baytning zohiriy ma‘nosi hammamizga tushunarli. Botiniy ma‘nosiga e‘tibor qarataylik. Soqiy tasavvufda nimaning yoki kimning ramzi? Bu savolga javob izlab ko‘raylik. „ ... mahbub deganda Xudoni,Payg‘ambarni, Pirni va sevgan kishisini anglash, soqiy deganda ham ayni shu to‘rt tushunchani e‘tiborga olish“ [3. Najmiddin Komilov, Tasavvuf,

2009:147-bet] kerak. Bundan kelib chiqqan holda soqiyni pir, murshidi komil deyishimiz mumkin. Murid pirga ergashishi hech birimizga sir emas. Baytda muridning qalbi ilohiy ma'rifatga talpinyapti. Pirning yordami orqali bunga erishmoqchi va undan so'ngra **HAQIQAT**ga ega chiqish uning maqsadi. Xumor „mastlikning asorati, solikning ikkilanishi, beqaror holati“ [3. Najmiddin Komilov, Tasavvuf, 225-bet]ni anglatadi. Baytda pirga qarata „Kel birgalikda suhbat, anjuman o'tkazaylik. Mening ko'nglim sening purma'no so'zlaringga muhtoj. Ilohga bo'lgan ishq yo'lida bir qancha to'siqlarga uchrayapman, kelib to'g'ri yo'lni ko'rsatingki, qalbidagi muhabbat bundan-da mavjlanib, gurkirab yonsin, zinhor va zinhor pasaymasin, butun vujudim Haq izmida bo'lsin“ demoqda. Xuddi shunday kayfiyat keyingi baytga ham ko'chgan, baytlar bir-birini to'ldirgan:

Tushdi devona ko'ngul sunbuli purtobing aro,
Notavondir bu salosilda anga tob kerak.

Baytning zohiriy ma'nosi: „Devona ko'nglim jingalak soching aro tushdi, xuddiki, zanjirlar bilan kishanlandi. Ko'nglim bu zanjirlardan chiqishga ojiz, kuchsiz, undan chiqish uchun menga kuch –quvvat kerak“. Endi baytni irfoniy ma'nosiga nazar tashlasak. Birinchi misrada qo'llanilgan „sunbuli purtob“ (jingalak soch)ni tasavvuf bosqichlariga ko'tariladigan zinaga o'xshatsak bo'ladi, ya'ni **SHARIAT, TARIQAT, MA'RIFAT** va **HAQIQAT**ga shu zinalar orqali chiqiladi. Shulardan kelib chiqsak baytning botinida mana bunday mazmun zuhur bo'ladi: „Ko'nglim HAQIQAT(Alloh vasli)ga erishish uchun bir qancha sinov, bosqichlardan o'tishi kerak, Mening murodimni hosil bo'lishi uchun iroda va kuch-quvvat ber“.

Bazmi vasling tilagon zorlara sham kabi,
Jigari so'xta-yu diydai bexob kerak.

Jigari so'xta- kuygan jigar,bag'ir, diydai bexob-uyqusiz ko'zlar.

Barchamizga ayonki,pir va muridlar xonaqohlarda suhbat qurib, ma'rifat nurlarida toblanganlar. Shogird ustozni, piridan botiniy ilmlar, g'ayb olami sir-u asrorlarini o'rganadi.Pirlar muridlar uchun Alloh vasliga yetishda bir vosita hisoblanadilar. Shundan kelib chiqqan holda baytni quyidagicha sharhlasak joiz bo'ladi:

„Sen muridlarga sham kabisan, ya’ni yo‘lini yo‘qotgan kishilarga bir nursanki, ular sen tomon talpinib, to‘g‘ri yo‘lni topajak. Ilm-u ma’rifating bilan chanqagan qalblarni qondirasan. Sening to‘g‘ri yo‘lga chorlovingni anglamoq uchun muridlarga kuygan jigar, ya’ni haqiqatga tashna qalb va uyqusiz tunlar kerak bo‘ladi. Muridlar kunni kun demay, tunni tun demay ma’rifating bulog‘idan qonishga tayyorlar“.

Boqma oyina kabi yor yuzina gustoh,

Vasl xilvatgahida oshiqqa odob kerak.

Beodoblik bilan yor yuziga tikilma, negaki Yorning vasliga talpinadigan, yetishadigan makonda, ya’ni xilvatgohda solik odob-axloq qoidalariga rioya qilish kerak. Mutlaq jamolga yetishish uchun oshiqqlar xilvatgohlarga chekinib, muroqaba holatida duo va hamd-sanolarni zikr qilishgan.

Oshiqing nola qilur, oh chekar, ashk to‘kar,

Kimsakim, pesha qilur bir hunar, asbob kerak.

Men oshiqi devonang ishqingda nola qilib, oh chekyapman, ko‘z yoshlarim shoshqator oqmoqda. Ey Yor, mening senga oshiqligimni, tashnaligimni mana shu amallarimdan bilsang bo‘ladi. Xuddiki kishi ma’lum bir hunarni egallaganda uning asbobi bo‘lgani kabi bu oh chekish-u Sening visolingga erishish uchun qilyotgan nolalarim mening uchun bir asbobdir. Ta’na bo‘lmasinki, bajargan ezgu amallarim va toat- ibodatlarim ortidan nasib etsa vaslingga erishaman.

Aylading bag‘rimni qon, mastlig‘ et, ayla nashot,

Kimki bu sog‘ar erur ilgida shodob kerak.

Mazkur baytda mana bunday ma’no zuhur bo‘lmoqda: „Sen mening bag‘rimni qon aylading, ya’ni g‘amda qoldirding, sen aksincha meni mast et, shod-hurram et, Kimningki qo‘lida qadah bor ekan, unga shodlik suvi, ya’ni may zarur“. Bu yerda qadah va may tasavvuf istilohlari sifatida kelgan. Qadah- oshiqning ko‘ngli, may- ma’rifatdir. Oshiqning qalbi qadah bo‘lsa, unga Yor ma’rifatidan quymog‘ini istayapti.

Men kim-u zuhdi vara’, ishq-u muhabbatdur ishim,

Menga qoshiq xami-yu zohida mehrob kerak.

Ushbu baytda zuhd, vara', zohid va mehrob so'zlari tasavvufiy istilohlarga mansubdir. Zuhd va vara' tariqat maqomatlari hisoblanadi. Bularga solikning ruhan va ma'nan kamolotga yetayotganligini ko'rsatib beradigan ma'lum bir bosqichlar sifatida qaraladi. **Vara'** „...ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish“ , „... tilga, ko'zga, quloqqa va oyoqqa band solish“ [3.Najmiddin Komilov, Tasavvuf , 27-bet] bo'lsa, **zuhd** – yeyishdan, ichishdan saqlanish va bundan tashqari dunyo mol-dunyosiga ruju qo'ymasdan qalbini pok saqlashdir. Darhaqiqat, parhezning bu ikki ko'rinishi solik uchun Haqiqat tomon qo'yiladigan katta odimidir. **Qosh** tasavvufda „ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasi“ [3.Najmiddin Komilov, Tasavvuf, 147-bet] ni anglatadi. Zohid esa o'zini Seviklimiz uchun baxshida etgan, amallari bilan Unga talpinuvchi ma'rifatli shaxsdir. Shundan kelib chiqqan holda baytni tahlil qilsak. Oshiq bu yerda tariqatning maqomot bosqichlarini bosib o'tmoqda. Tavbadan o'tib, zuhd va vara'ni ham egallamoqda. U bu yo'lda ishq-muhabbatga tayangan, moddiy olamdan ilohiy olam tomon kirish asosiy maqsadi, mayliga zohid mehrobiga ega bo'laversin, ammo bizning oshiq uchun Yor tomonidan bir ishora berilsa ham u bundan kifoyalanadi.

Garchi olamda Amiram senga qulmen billah,

Ikki zulfing xamidin bo'ynima qullob kerak.

G'azal maqta'sida shoir iyhom san'atidan unumli foydalangan. Baytda „Amiram“ so'zi ham shoirning taxallusi, ham amir , shoh ma'nolarida qo'llanmoqda. Baytdagi zulf so'ziga tasavvufiy jihatdan yondashsak. „...zulf ko'ngillarni Yor visoliga yetkazuvchi o'ziga xos yo'l, o'ziga xos tariqat, zulfning chin ila shikanlari yo'ldagi manzil-maqomlardir. Zulf olam bo'lsa, uning chin ila shikanlari olamdagi turli narsalar“ [Abdulhamid Qurbonov, Zulf- so'fiyona istilohda olam ramzi, kh-davron.uz]. Zulfni olam ramzi ekanligidan kelib chiqqan holda baytning ma'nosi:

„Garchi bu olamda shoh, amir bo'lsam ham Sening noming ila qasamki, senga qulman. Foniy dunyoda sening bandangman, meni shunday band etginki,

boqiy dunyoda ham senga shunday qul, banda bo‘lib qolay, zinhor senga bo‘lgan ishqim so‘nmasin“ kabi bo‘ladi.

Amiriy mana shunday irfoniy g‘azallar yozishda o‘zining ma‘lum bir uslubiga ega. So‘zlarni she‘riyatida ustamonlik bilan qo‘llaydi, har bir qo‘llagan so‘zi g‘azalda tadriylanib, darajalanib o‘quvchida asarni o‘qishga ishtiyoq hosil qila oladi. Bu jihatdan Amiriyning salaflarining munosib davomchisi tarzida talqin qilinsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, Alisher Navoiy ijodi Amiriyning befarq qoldirmagan. Devonida Navoiyning 20 ga yaqin g‘azaliga muxammas bog‘laydi. Navoiy asarlari zohiran yor, uning vasfi va shu kabi mavzular atrofida talqin qilinsa-da, botinan Haq ma‘rifati, uning sifatlarini o‘zida mujassam etadi. Alisher Navoiy she‘riyatini o‘qigan kishi uning naqadar diniy va dunyoviy bilimlarni egallaganidan hayratda qoladi. Chunki bu bilimlar asar tarkibida bir-birini to‘ldirib keladi, dunyo kishilari uning zohirini, din kishilari esa botiniy ma‘nosidan bahra oladilar. Xuddi shu kabi Amiriy ham ustozlari an‘anasini davom ettirib, ularga munosib tarzda asarlar yaratdi. Qo‘qon adabiy muhitida salaflarining asarlarining o‘qishlilik darajasini oshirdi. Amiriy Navoiydan tashqari Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil, Zaliliy, Kamol, Nobiy kabi ijodkorlar asarlariga ham muxammaslar bog‘lagan. Aynan Navoiyning keltirib o‘tishimizdan maqsad, Navoiyning g‘azallariga bog‘langan muxammaslar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Amiriyning irfoniy olami juda keng darajada deb aytish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki shoir bu mavzuda ko‘p ijod qilmagan. Amiriyning bu mavzudagi g‘azallarini aniqlash uchun ularda qo‘llanilgan tasavvufiy istilohlarga e‘tibor qaratish kerak. Ularni sharhlash orqali shoirning irfoniy olamiga kirib boriladi. Ammo irfoniy mazmundagi g‘azallari ozchilikni tashkil qilsa ham badiiyati yuqori asarlar sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хамиджон Хомидий, Кўхна Шарқ дарғалари. (Бадий илмий лавҳалар) –Т.: „Шарқ“ нашриёт- матбаа концерни бош тахририяти, 1999. Б.350
2. Амирий, Девон. (Ўзбек тилидаги шеърлар) -Т.: Ўзбекистон ССР „Фан“ нашриёти, 1972. Б. 359
3. Нажмиддин Комилов, Тасаввуф. „MOVAROUNNAHR“ нашриёти ҳамда „O‘ZBEKISTON“ NMIU, 2009. Б.344
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/abdulhamid-qurbonov-zulf-oy-zuhal.html>